

AHMAD ZAKI VALIDIYNING TARIXDA PARADIGMAL YONDASHUVLARI



<https://doi.org/10.5281/zenodo.15715803>

Xujayev Muminjon Isoxonovich
Alfaraganus universiteti falsafa fanlari
doktori (DSc) professor v.b.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolanin asosiy mazmuni ahmad zaki validiy ilmiy faoliyatining tarixda paradigmalar yondashuvlar asosiy yo'nalishlari "Umumturk tarixiga kirish" nomi bilan nashr ettirgan asarida batafsil keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: ilmiy, faoliyat, tarix, paradigmalar, yondashuv, asosiy, yo'nalish, asar.

ПАРАДИГМАЛЬНЫЕ ПОДХОДЫ АХМАДА ЗАКИ ВАЛИДИ К ИСТОРИИ

АННОТАЦИЯ

Основное содержание данной статьи подробно изложено в научном труде Ахмада Заки Валиди «Введение во всеобщую тюркскую историю», представляющем собой основное направление парадигмальных подходов в истории.

Ключевые слова: научная, деятельность, история, парадигмальный, подход, основной, направление, работа.

AHMAD ZAKI WALIDI'S PARADIGMAL APPROACHES TO HISTORY

ABSTRACT

The main content of this article is detailed in the work of Ahmad Zaki Validi, published under the title "Introduction to General Turkic History", on the main directions of paradigmatic approaches in history.

Keywords: scientific, activity, history, paradigmatic, approach, main, direction, work.

KIRISH

Ahmad Zaki Validiy To'g'on 1927 yildan beri Istanbul universitetida umumiy turk tarixi fanidan ma'ruzalarini "Turk tarixini faqat Osiyo va Yevropa xalqlari tarixi bilan birga o'rganish mumkin", degan so'zlar bilan boshlagan. Osiyo tarixini universitetda kurs sifatida o'qitilishi 1968-1969-yillardagina uning uzoq sa'y-harakatlari natijasida mumkin bo'ldi.

Istanbul universiteti Adabiyot fakultetining 1968-1969 o'quv yili uchun matnlarga rasm va xaritalar qo'shib tarix fanini o'qitishda yangi usul sifatida

“Osiyo tarixi”ga oid qismini (Turkiya ish banki madaniyat nashrlari) nashrga tayyorlaydi.

Ahmad Zaki Validiy To‘g‘on Osiyo tarixi darslarida turk tarixiga oid qiziqarli uchun dolzarb mavzularni tanlagan. U asarda turklar bilan tarixiy aloqa ega va boy manbaga ega Xitoy tarixini har tomonlama bayon qiladi.

Yaponiya tarixida samuray syogunligi va qarluqlarning “sagun” maqomining o‘xshashligi, koreys va turkiy tillarning umumiy xususiyatlari haqida to‘xtalar ekan, u Yaponiya feodalizmini Yevropa feodalizmi bilan qiyoslaydi, feodal xususiyatlarini qiyosiy kontekstda ochib beradi.

U 1868 yildan keyingi Yaponiyaning Meiji davri tarixini Usmonli-Turkiya modernizatsiyasi bilan bir vaqtda taqqoslaydi.

To‘g‘on ma’ruzalarida ahamiyat beradigan mavzu Janubi-sharqiy Osiyo tarixidir. Ushbu bo‘limda Usmonlilar imperiyasi va Ache Sumatra sultonligi o‘rtasidagi aloqalar, Malayziya va Indoneziyaning tarixiy sultonliklarining Markaziy Osiyo bilan diniy va madaniy aloqalari, O‘rta Osiyo bilan chet eldagi “Buyuk ipak yo‘li” savdo aloqalari yoritilgan. Hind okeani va Yaqin Sharq ma’ruzalar vaqtida Usmonli-Turkiya munosabatlari ma’lum bo‘lmagan transmilliy aloqalarni o‘z ichiga olganligi bilan noyob bo‘lib, ushbu asarning Hindixitoy bo‘limining oxirida XX-asr oxiridan Britaniya, Gollandiya, Fransiya mustamlakachiligi ostida Malayziya, Indoneziya va Vetnam mustaqilligi uchun kurashlarni o‘z ichiga olgan qism qiziqish uyg‘otadi. Bu erda Ahmad Zaki Validiy To‘g‘on tarixchi sifatida zamonaviy tarixdagi millatchilik va istiqlolchilik harakatlari hamda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan “Ittihad-i islom/panislamizm” munozaralari bilan bog‘liq holda turkiy xalqlar tafakkuri mavzusiga qiyosiy yondashuvni taqdim etadi.

Validiy “Qadimgi turkiy va mo‘g‘ul xaritalari hamda xaritachilik masalalariga doir qaydlar” nomli maqolasida Mahmud Qoshg‘ariy tuzgan xaritani tahlil qiladi. Chingizxon va Amir Temur davrida tuzilgan xaritalar Mahmud Qoshg‘ariy tuzgan xarita jug‘rofiy tushunchaga ko‘ra, yaratilgan eng qadimiy xaritadir. Mazkur masala bilan to‘shu kungacha geograflardan Konrad Miller [1] va Albert Kerman[2]lar shug‘ullangan, har ikki olim ham xaritaning asl turkiy asar ekanligini ta’kidlaganlar. Ular xaritadagi jug‘rofiy atamalarni izohlay olmaganlar”. [3]

Validiy yozishicha: “Asarning aslligi nimadan iboratligini to‘liq bayon etmaganlar. Har ikki olim ham xaritaning, ayniqsa, G‘arb mamlakatlari qismida Islom xaritalariga o‘xshash va farqli jihatlarni ko‘rsatish bilan kifoyalanganlar” [4]. Shuningdek, olim “Mahmud Qoshg‘ariyning xaritasida kitobidagi kabi hind, Xitoy va Budda madaniyatlarining izi sezilib turadi. Sariq daryo va Yang Sze Kiyangning qadimgi Xitoy xaritalarini eslatuvchi chizmasi ham fikrimiz dalilidir. Fikrimcha, mazkur xarita mazmun mohiyatiga ko‘ra, Budda asarlaridan ko‘chirilgan, Qadimgi Xitoy xaritalarida Yevropa xaritalaridagi kabi shimol, islom xaritalarida janub, Mahmud Qoshg‘ariyning xaritasida esa, qadimgi turkiylarning qiblasi sanalgan Sharq markazdir, ya’ni bunda

shimoliy turkiylar kosmogoniyasi hukmron. Keyin xaritada qo'llanilgan buyoq ham original, ham noan'anaviy. Nima bo'lganda ham ushbu xarita qadimgi turkiy madaniyat va turkiylarning jahon haqidagi tasavvurlarining eng muhim, qimmatli hujjat" [5] ekanligini ta'kidlaydi.

Janubi-sharqiy Osiyo jamiyatlarining mustamlakachilik tarixida Indoneziyada kuchli istiqlool va millatchilik harakati islomiy o'zlik doirasida iqtisodiy kuchga ega bo'lgan holda shakllangan.

Mustaqillik uchun iqtisodiy taraqqiyot muhim ekani, Indoneziyadagi "Sarakat Islom" (Sortan-i islom) harakati bu yo'lda eng muhim tashkilot ekanligini ta'kidlagani jahon tarixidagi voqealarni yo'lga qo'yishiga misol bo'ladi.

To'g'onning XX-asr Janubi-sharqiy Osiyo jamiyatlari Ikkinchi jahon urushidan so'ng mustaqillik uchun kurashda muvaffaqiyat qozona oldi. Ta'kidlash joizki, istiqloolchilik harakati ostidagi xalqlar, ayniqsa, Osiyo musulmonlarining ig'vosi va qo'llab-quvvatlashi to'g'ridan-to'g'ri urushga olib keldi. Bu Yevropa mustamlakachilik tartibining qulashiga sabab bo'ldi.

Ikkinchi jahon urushi davrida Yaponiyaning Malayziya va Indoneziyadagi qisqa muddatli harbiy zo'ravonligiga qaramasdan, mahalliy millatchilar bilan hamkorlik Sharqiy Osiyo mintaqasi aholisidan tashqarida yaxshi ma'lum emas.

Bizningcha, Ahmad Zaki Validiyning yapon imperializmining qarama-qarshi ta'sirini bilishi Rossiya turkiy xalqlari istiqlool harakatining Yaponiya bilan yaqindan o'zaro ta'siridan xabardorligini ko'rsatadi.

Fyodor Sergeevning 1920-yillarda Janubi-sharqiy Osiyoda inqilob ehtimoli buddaviylar va musulmonlar o'rtasida ziddiyat keltirib chiqarishi mumkinligi haqidagi bashorati 60-yillarda ham o'z kuchini saqlab qoldi. "Osiyo tarixi" ma'ruzalar matnida To'g'onning tarixshunosligi hamda siyosiy yondashuvi yoritilgan bo'lib, bu zamonaviy dunyo siyosatida turkiylar dunyosining ozodligiga urg'u berilgan.

"Osiyo tarixi" ma'ruzalar matnida Hindiston tarixiga yondashish bilan tugallangan. Shubhasiz, Hindiston tarixi, turk-usmoniy aloqalari va qiyosiy tahlil qilish imkoniyatiga ega boy tadqiqot bo'lishi mumkin. Ahmad Zaki Validiy shug'ullanayotgan Osiyo tarixidagi ko'plab mavzular mamlakatimizda keyingi yillarda ko'zga ko'ringan tadqiqot sohasiga aylangani asarning ma'ruza sifatida o'qitilishi davrida dolzarb bo'lganini ko'rsatadi. Bu uning "dunyo tarixi" doirasidagi voqealar bilan shug'ullanishi, mahalliy tarixni faqat milliy davlat tarixi deb hisoblaydigan cheklovchi nuqtai nazarni kengaytirish uchun hali ham haqiqiy usuldir. Asar muharriri tomonidan qo'shilgan joriy manbalar, xaritalar, nomlarning joriy orfografiya bo'yicha imlosi kabi ma'lumotlardan bugungi Osiyo tarixi faniga kirish uchun ma'lumotnoma sifatida foydalanish imkonini beradi.

Validiy islomiy manbalar tadqiqida tarixiy haqiqatni falsafiy jihatdan tadqiq qiladi. Tarixni soxtalashtirish to'g'risida shunday xulosaga keladi: "Bugungi kunga kelib qadimgi tarixchilar zamonidan yozilgan soxtakorlik va har qanday "dalili zaif" tarixiy hujjatlar bugungi kun tarixchilarini tarix ilmiga bo'lgan qiziqishlarini susaytirmaydi. Bugungi kun olimlari endi haqiqiy ma'lumotni soxta

ma'lumotlardan ajrata oladigan darajaga etdilar. Ammo insoniyatning tarixiy faoliyati shunchalik chigal va murakkabki, ularning ko'pchiligi haligacha ochilmay qolayotganligi tarixning ochilgan tomonlari ham hali isbotlanmagaligini ko'rsatadi. Sodir bo'lgan ba'zi voqealar haqida biron-bir so'z qayd etilmaganini ko'rish mumkin. Ba'zi tarixiy voqealarga oid hujjatlar soxtasini haqiqiysidan ajratish, hatto, bugungi kunda murakkabligicha qolmoqda, tanqidsiz asar yozgan tarixchilarining sodda qilib ko'rsatgan ba'zi hodisalar haqiqatdan uzoq ekanligi sabab muammolar tug'ilmoqda. Misol uchun: Iso payg'ambarning tug'ilishi bugun jahon tarixining boshlanishi va uning yuz millionlab inson tarafidan o'z zamonasining eng yaxshi shaxsiyat sifatida ko'rilganiga qarshi so'nggi tadqiqotlar uning tarixiy hayotini, hatto, tarixiy shaxs ekanligi yoki emasligiga shubha bilan qaramoqda. Faqatgina tarix tanqidi bilan bunday ma'lumotlarni haqiqiy yoki soxtaligini isbotlab berish muhimdir. Shunga o'xshash holatlar boshqa fanlarda ham mavjud" [6].

Validiy sotsializm haqidagi g'oyalarining yana bir xususiyati shundaki, ushbu ijtimoiy tuzum taqdirini faqat iqtisodiy jarayonlar bilan bog'laydigan marksizmdan farqli o'laroq, xalqlarning sotsializmga munosabati urf-odatlar, an'analar, umuman olganda, milliy xususiyatlarga bog'liq hisoblaydi. Shuningdek, Validiy: "Davlat ishlarida jamoaviy mas'uliyat hissi nafaqat xalqning madaniy saviyasiga, balki urf-odatlari va ma'rifatiga ham bog'liq. Mening boshqirdlarim ruslardan madaniy jihatdan pastroq, ammo davlat ishlariga kelganda, ular jamoaviy mas'uliyat hissiga ega ekanligini anglagan. Qozoqlar, turkmanlar va boshqirdlar to'liq demokratik tartiblarni o'rnatishlari mumkin edi. Shu bilan birga, ular irodasi oldida ta'zim qilishga odatlangan. Agar qozoq, boshqird, o'zbek xalqlari mustaqillikka erishsa, sotsializmning o'rnatilishi ularning qishloq xo'jaligi, irrigatsiya tizimi, tog'-kon sanoatining rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi" [7] degan xulosaga keladi.

Validiyning so'zlariga ko'ra, sotsializmning salbiy tomonlari ham bor. "xalqlarning mustaqillik irodasini zaiflashtirishda va odamlar o'rtasidagi shaxsiy tashabbusni yo'q qilishda uning tengi yo'q" [8].

Validiyning qarashlari diqqatga sazovor. Demokratiya va sotsializm o'rtasidagi munosabatlar haqida ijtimoiy ongda keng tarqalgan "demokratiya" tushunchasi ozchilikni ko'pchilik irodasiga bo'ysundirish tamoyilini tan olish bilan ajralib turadi. Ko'p millatli jamiyatda bunday demokratiya kichik xalqlar deb atalganlarni son jihatdan ustunlikka bo'ysundirish quroli bo'lib xizmat qiladi. Mashhur rus faylasufi S.L.Frank fikricha, demokratiyaning qadri shundaki, u hammaning kuchi emas, balki hammaning erkinligidir. Demokratiya ko'pchilikning benuqsonligiga asoslanishi mumkin emas [9].

Validiyning ta'kidlashicha, demokratiyaning yagona retsepti yo'q. Demokratiyaning maqsadi xalqlar va jamiyatlarning o'z ehtiyojlari va irodasiga mos keladigan shakllarda yashashga imkon berishdir. Demokratiya turli xalqlar uchun har xil, lekin uning asosiy sharti mavjud. Jamiyat yoki odamlar ichida umumiy mas'uliyatni taqsimlash o'z zimmasiga olish va shunga muvofiq

belgilangan qonunlarga bo'ysunish qobiliyati [10]. Ba'zi davlatlardi demokratiya g'oyasi o'zining namoyon bo'lishida milliy shartli hodisa sifatida hamon dolzarb bo'lib qolmoqda, demokratiya niqobi ostida monotonlik joriy etilib, xalqlar hayotidan milliy o'ziga xoslik olib tashlanmoqda (global miqyosda - demokratiya Amerika modelining joriy etilishi).

U G'arb olimlarining G'arb erkinligi va shaxs g'oyasi, kategoriya dinamikligi, fikr erkinligi haqida, Sharq esa jamiyat hayotidagi zulm, tarixdan tashqari va yopiq jamiyat, ruhiy inertlik haqidagi tushunchalarni izohlaydi. Sharqning G'arbdan ortda qolishini iqtisodiy sabablar bilan izohlab beradi. Yevropaliklar tomonidan dengiz yo'llari kashf etilishi tufayli Sharqdagi quruqlikdagi savdo yo'llari tark etiladi. Bu musulmon davlatlari turg'unlashuviga olib keldi. Validiyning fikricha, "madaniy" va "sivilizatsiya" farqlarini anglash kerak. Musulmon Sharqi sof geografik ma'noda Sharq olamiga mansub, aslida u G'arb sivilizatsiyasining bir qismi. G'arbg'a sivilizatsiya sifatida musulmon Sharqi emas, balki Hindiston va Xitoyga qarshi rus jamiyatidagi millatlararo munosabatlar "jarohatlarini" mojarolar namoyon bo'lishidan oldin ko'rgan. O'z tadqiqotida u nazariy bilimlarning yuqori darajasini ko'rsatadi.

Ahmad Zaki Validiy To'g'on yoshligidayoq to'g'ridan-to'g'ri ma'lumot manbalariga borish va manbalarga tayanib sintez qilish qobiliyatiga ega bo'lgan. 1914 yilda Turkistonga qilgan safarida - 1923 yilda Ibn al-Faqih "[Kitob axbor al-buldon](#)" ("Mamlakatlar to'g'risidagi xabarlar kitobi") asarining yangi nusxasini topadi. 1930 yildan keyin esa qadimiy Xorazm tilining namunalarini topadi. U 1925 yildan Istanbul kutubxonalarida mavjud bo'lgan qo'lyozmalardan muhim ma'lumotlarni to'plagan. Turkiston ilmiy an'alarining G'arb ilm-fani bilan sintezini ifodalagan. U amakisi Habib Najjar va otasi orqali Shimoliy turkiylik va shu yo'l bilan Turkiston ilmiy an'anasining merosxo'ri bo'lgan. Unga Bartoldning tadqiqotlari juda katta ta'sir qilgan. U o'zining ilmiy fikrlarini hech ikkilanmay bildirgan.

"Ahmad Zaki Validiy To'g'onning dunyo olimlarining e'tirofi haqiqatan ham katta. U Eron ta'lim jamiyatining birinchi darajali ordeni sohibi, Turkiya sharqshunoslik jamiyati asoschisi, Hammer-Purgshtal nomidagi Avstriya ilmiy jamiyati a'zosi, Manchester universiteti faxriy doktori, shogirdlari va tinglovchilarining sevimli o'qituvchisi Istanbul universitetida 60 yoshga to'lishi munosabati bilan (1950), Turkiya, Avstriya, Eron, AQSh, Germaniya, Angliya, Finlyandiya, Polsha, Fransiya, Misr, Pokistondan vafoti etganida vidolashuv marsimida dunyoga mashhur olimlar ishtirok etishadi. Zaki Validiy To'g'onning bir yuz oltmishdan ortiq asarlari o'zi bilgan o'nlab tillarda: boshqird, rus, turk, nemis, ingliz, venger, fransuz, tatar, arab, fors va boshqa ko'plab tillarda yozilgan" [11].

U umrining oxirigacha yangi ma'lumotlarni o'rganib, tadqiqotchi bo'lishda davom etdi, betobligida ham O'g'uz dostoni haqida mulohazalarini bildirdi. Umumjahon tarixi ilmiy tadqiqotlari sohibi Ahmad Zaki Validiy To'g'on turkiy va musulmon kimligi bilan tarix olamida ta'sir o'tkazgan. Turk tarixining

xususiyatlarini bilgani holda, bu masalada murosaga kelmadi, xalqaro kongresslarda o'zining ilmda "jangovar"lik xarakterini davom ettirdi. U XIX-asrning eng nufuzli Turk tarixshunosligi namoyandalaridan biri bo'lgan. Fuad Ko'prulu bilan birgalikda "turk" tushunchasining muhim xususiyatlarini aniqlash, golland turkshunosi Karl Jonning O'rta Osiyo tarixiga qiziqishiga hissa qo'shgan.

Validiy To'g'on ilk tadqiqotini 1908 yilda boshlagan va umri davomida o'qishni davom ettirgan. Asosiy asarlari: "Turk va tatar tarixi" (Qozon, 1912); "al-Beruniy" (1928); "O'n etti qum osti shahri va Sadri Maqsudi Bey" (Istanbul 1934); "Ibn Fadlonning sayohatnomasi" (Leypsig 1939); "Beruniyning "Dunyo xaritasi"" (Dehli, 1940); "Beruniyning "Al-Hanunu'l-Mas'udiy"" dunyo geografiyasi bo'limining bir qismi nashr etilgan, bu tugallanmagan asar); "Zamonaviy Turkiston va uning yaqin o'tmishi" (Qohira, 1928-1940; nashr Fevzi Chakmak yordamida yakunlangan); "Turkistonning 1929-1940 yillardagi ahvoli" (Istanbul 1940); "Mo'g'ullar, Chingiz va turklar" (Istanbul 1941); "Umumturk tarixiga kirish", (Istanbul, 1946, 1970); "Zamonaviy Turkiston va uning yaqin tarixi II" (Istanbul, 1981; Qohirada arab yozuvining qisman qayta ko'rib chiqilgan yangi varianti); "Tarixda usul" (Istanbul, 1950, 1969); "Muqaddimat ul-adab"ning Xorazmcha lug'ati" (Istanbul, 1951); "XXII-kongress 1951-yilda Istanbulda yig'ilgan. Sharqshunoslar qurultoyining ishi" (Istanbul, 1953); "Turk-Turkiston" (Istanbul, 1960 yilda Yangi Turkiston jurnalining 1927 yil 40-sonida bosilgan maqola); "Istanbul kutubxonalaridagi miniatyuralar haqida" (Istanbul" 1963); "Turk madaniyati qo'llanmasi dasturi va ish rejasi" (Istanbul" 1967); "Xotiralar, Turkiston va boshqa musulmonlarning milliy ozodlik madaniyati uchun kurashi" (Istanbul" 1969; Anqara 1999, ko'p tillarga [qisman yapon tiliga] va boshqa turkiy tillarga tarjima qilingan).

Abdulqodir Inon bilan 1927-yilda "Yangi Turkiston" jurnalini nashr etgan, turli jurnallarda ko'plab maqolalari chop etilgan, ayrim maqolalar vafotidan so'ng to'plam qilib, nashr etilgan. Ulardan ba'zilari: "Turkiylikning taqdiri haqida" (Istanbul" 1970, 1977); "Qur'on va turklar" (Istanbul" 1971); "O'g'uz dostoni: Rashiddining O'g'uznomasi, tarjima va tahlil, (Istanbul, 1972; bu uch asar Tunjay Boyqaro tomonidan to'plangan va nashr etilgan); Boshqirdlar tarixi (Boshqird tiliga Amir Yuldashbaev tarjima qilgan, (Ufa, 1994); turk tiliga Isenbika To'g'on tomonidan tarjima qilingan (Anqara, 2003). To'g'onning "Mo'g'ullar davrida Anadoluning iqtisodiy ahvoli" (1930) nomli asari V. Xinz tomonidan qayta ishlanib, kitob holida nashr etilgan.

To'g'on butun umrini turk tarixi va madaniyatini tadqiq qilishga bag'ishlagan, u ilm olishga ishtiyoqi baland, umuminsoniy qadriyatga ega tarixchi edi. Ozodlik uchun kurashda ham milliy madaniyat va tarixni o'rganishda davom etdi. Ko'rinib turibdiki, To'g'on siyosatga kirib, harbiy kurashda qatnashgan, hibsga olingan, sudlangan va qamoqqa tashlangan. Bularga qaramay, uning millatparvarligi o'z davrining qahramonligi edi.

"Validiy jamiyatda umuminsoniy hayot va insoniy munosabatlarni shakllantirish haqidagi qarashlarga qaytadi. Validiyning shogirdi, turk tarixchisi

Tunjay Boyqaro uning dunyoqarashini shakllantiruvchi quyidagi omillarga ishora qiladi: 1) turkiy xalq an'analari; 2) islom dini; 3) turklarning milliy odatlariga ko'p mos keladigan ijtimoiy turmush tarzi. Tunjay Boyqaro shunday ta'kidlaydi: "Milliy turkiy urf-odatlar va islom an'analari odamlarga zulm qilish, jamiyatda insonlarning alohida-alohida bo'lib, boyliklar yig'ishga salbiy munosabatda bo'ladi. Bunday qoidalar Zaki Validiyning diqqatini tortmay qolmasdi. Turkiy urf-odatlar odamlarning o'zaro yordam ko'rsatish tamoyillariga asoslangan mavjudlik uchun kurashning samaradorligini e'tirof etadilar, shuning uchun ham kambag'al va ojizlarga g'amxo'rlik qilayotgan odamlar qurshovida ulg'aygan Zaki Validiy uchun bunday qarashlarga amal qilish tabiiy edi; 4) o'z xalqiga muhabbatdan iborat bo'lgan millatchilik. "Zaki Validiy barcha millat va elatlarni hurmat qilgan. Lekin ulardan o'z xalqiga nisbatan xuddi shunday tuyg'uni kutgan edi", "O'zini va xalqini sevmagan odam butun insoniyatni yomon ko'radi, insoniyatga muhabbat esa o'ziga, xalqiga bo'lgan muhabbatidan o'tadi" [12].

XULOSA

Birinchidan, Ahmad Zaki Validiy ilmiy faoliyatining asosiy yo'nalishlaridan biri, eng muhimi, butun turkiylar tarixini birlamchi manbalar asosida ishlab chiqish edi. U bu tadqiqotlarni ikki jildda jamlagan bo'lsa-da, faqat birinchi jildini "Umumturk tarixiga kirish" (Istanbul, 1946 y, 1970 y) nomi bilan nashr ettirgan. Asar turkiylarning miloddan avvalgi XVI-asrgacha bo'lgan tarixini o'z ichiga oladi. Ushbu keng ko'lamli tadqiqotda tadqiqotchi turkiy tarixning qadimiy davrlarini (Turkistonning aholisi va turkiylar, Janubiy Turkistonning qadimgi aholisi va ularga qo'shnilar; saklar turkiyligi va Afrosiyobning (Alp Er Tunga); kelib chiqishi) yoritgan. "Turk" va "Turon" so'zlari? "Turk" nomini olgan birinchi odamlar; Qadimiy davrning umumiy tavsifi, ayniqsa, o'z yurtida sodir bo'lgan voqealar, islom davridagi turkiylar tarixining yuksalish davri, turkiylarning istilolari va ekspansiyalari, turk istilolarining an'analari; turk va mo'g'ul istilosining jahon tarixidagi ahamiyati; turklarning tarqalish shakllari va uni keltirib chiqaruvchi omillar; turk va turonliklarning Sharqiy va Janubiy Osiyo, Sharqiy va Markaziy Yevropa, shuningdek, Sharqiy Osiyo va Shimoliy Afrikaga tarqalishini tasvirlashga harakat qilgan. Muallif ushbu tadqiqotida, Movarounnahrda saljuqiylar va o'g'uzlarning hayoti, ularning Ozarbayjon va Onadolo'dagi manzilgohlari, Ilhoniylar, Usmoniylar, Ozarbayjon va Usmonlilar imperiyasida sodir bo'lgan siyosiy, iqtisodiy va madaniy o'zgarishlar haqida ham fikr yuritadi.

Ikkinchidan, XIV-XVI asrlar birlamchi manbalarga tayanib, nisbatan ilmiy va haqqoniy fikrlarni ilgari surishga harakat qilgan. Zaki Validiy To'g'on butun turklar tarixini tadqiq qilgan ekan, ilhoniylar hukmdorlarining turkiylar tarixidagi o'rnini, turk tarixidagi millat tuzumining ahamiyatini, huquq va din o'rtasidagi munosabatlarni o'ziga xos yo'llar bilan izohlab, ko'rsata olgan. Ahmad Zaki Validiy 1929-1932 yillarda boshlagan tarixni o'rganish metodikasi haqidagi ma'ruzalarini 1941 yilda nashr ettirmoqchi bo'lsa-da, bu ish ma'lum sabablarga ko'ra tugallanmagan. Biroq, bu ish 1950 yilda amalga oshirildi ("Tarixda usul",

Istanbul, 1950, 1969y.). Zaki Validiy To'g'on juda katta hajmdagi so'zboshida madaniyat, obro'-e'tibor va boshqa masalalar yuzasidan o'z fikrlarini bildiradi. Bu asarida u turk tarixini o'rganishga yangi metodologiya olib kirdi. Asar uchta asosiy bo'limdan iborat: I bo'lim: tarix fanining mavzusi va sohasi (tarixda "tarix" tushunchasi va usullari, tarixning boshqa fanlar bilan aloqasi muallif yondashuviga ko'ra tarix turlari:); II qism: usul haqidagi bilimlar (usulning ta'rifi, rivojlanishi va ajralishi; manbalarni bilish; tanqid, talqin va sintez); III bo'lim: tarix falsafasi (teokratik, materialistik, pozitivistik, idealist, impressionist, gumanistik va islom dini qarashlariga ko'ra baholash). Ushbu asar ilovasida muallif turk tarixiga oid manbalarni, Sharq, ayniqsa, islom va turkiy dunyoga oid to'plamlar, tarixga oid boshqa fanlar metodologiyasiga oid ishlar, shuningdek, tasniflash va muallif rejalarini ham o'z ichiga olgan.

ADABIYOTLAR RO'XATI

1. Sepaggurd. Muallif Mahmud Qoshg'ariyning xaritasini, aynan, faqat lotin harflariga o'g'irgan holda chop ettirgan. 1931. B. 142-148.
2. Herman A. Dive altesne fiivkische welt karte vom 1076 n CHr. Mm «Jmago Munli» 1, 1935, P. 21-28.
3. Xarita va kitobda keltirilgan jug'rofiy nomlarni "Devonu lug'oti-turkdagi jug'rofiy atamalar" nomi ostida 1927 yilda yozgan kichik bir asarda tadqiq qilgan, lekin nashr qilinmagan.
4. Prof. Zeki Velidi Togan. Eski Türk ve Mogollarin haritalari ve haritaciligi meselesine dair notlar // Kopuz. Istanbul. 1966. Sayi 5. S.164-169, 1 harita.
5. Prof. Zeki Velidi Togan. Türk destaninin tasnifi // Atsiz Mecmua. -Istanbul. Sayi 1. S.4-5, Sayi 2. S.27-30.
6. Prof. Zeki Velidi Togan. Tarihte Usul. - Istanbul: 1985. S.32.
7. Prof. Zeki Velidi Togan. Tarihte Usul. - Istanbul: 1985. S.209.
8. Prof. Zeki Velidi Togan. Tarihte Usul. - Istanbul: 1985. S.209 c.
9. Франк С.Л. Философские предпосылки деспотизма // Вопросы философии. - 1992. - №3. 114 с.
10. Заки Валиди Тоган. Воспоминания. Кн. 2. - Уфа: Китап, 1998. - 368 с. 208 с.
11. <https://cyberleninka.ru/article/n/zaki-validi-uchenyuy-i-lichnost>
12. Байкара Тунджер. Заки Валиди Тоган. - Уфа: Китап, 1998. 75-77 с.